

SALOHIDDIN MAMAJONOVNING ADABIY TANQIDIY FAOLIYATI

Farg‘ona davlat universiteti

Filologiya fakulteti o‘zbek tili yo‘nalishi

3-bosqich talabasi **Mahmudova Gulshoda**

Anotatsiya: Ushbu maqolada yirik munaqqid va akademik Salohiddin Mamajonovning o‘zbek adabiy tanqidchiligi rivojiga qo‘shgan hissasi yoritildi. Unda olimning XX asr o‘zbek adabiyoti, xususan Cho‘lpon, G‘afur G‘ulom va Hamid Olimjon ijodiga bag‘ishlangan tadqiqotlari hamda poetik tahlil borasidagi ishlari qisqacha tahlil qilindi. Shuningdek, Mamajonovning adabiy portret yaratishdagi mahorati va adabiy jarayonga hozirjavob yondashuvi uning tanqidchilik maktabidagi o‘rnini belgilashi ta’kidlandi.

Kalit so‘zlar: Salohiddin Mamajonov, o‘zbek adabiy tanqidi, XX asr adabiyoti, munaqqid, ilmiy tadqiqot, adabiy portret, G‘afur G‘ulom, poetik tahlil, bolalar adabiyoti, adabiyotshunoslik.

Salohiddin Mamajonovning ilmiy shakllanishi

S. Mamajonov ijodiy faoliyati, qiziqish doirasi, tadqiqot obyekti keng olimlar jumlasiga mansub. Uning tadqiqot obyekti - umuman XX asr o‘zbek adabiyoti deyish mumkin. Munaqqid adabiyot taraqqiyotining qonuniyatlari va uni tashkil qilgan o‘zak muammolar bilan muttasil shug‘ullanib keldi. O‘zbek adabiyotining yirik vakillari Cho‘lpon, Elbek, G‘ayratiy, G‘. G‘ulom, Hamid Olimjon, Uyg‘un, Sharof Rashidov, Zulfiya ijodining yetakchi tadqiqotchilaridan biri darajasigako'tarildi.

Tanqidchi sifatida Hamzadan boshlab to nodir iste'dod sohibi A.Oripov, Sh. Boshbekov ijodigacha faol munosabat bildirdi.

H. Olimjon haqidagi «Shoir dunyosi» kitobi rus (1972) va o‘zbek (1974) tillarida chop etildi. Muallif bu asarida H.Olimjonning bosib o‘tgan butun ijodiy yo‘li - uning ilk to‘plami «Ko‘klam»ga kirgan she'rlaridan tortib, qator ballada va poemalarini, dramatik

asari «Muqanna»ni davrma-davr, pogʻonama-pogʻona tekshirdi. Bu borada shoir ijodida realizmning qaror topishi masalasiga alohida eʼtibor berdi, sanʼatkor ijodining qudratli manbalarini izladi.

S. Mamajonov joriy adabiy jarayonda deyarli yarim asr inobaynida faollikni qoʻlida saqlab kelgan tanqidchilardan biridir. Matbuotda uning adabiy munozaralari, taqriz va maqolalari muttasil bosilib turdi. Olimning «Sheʼriyat bahsida» (1970) kitobi bir necha oʻn yillik mobaynida oʻzbek sheʼriyatidagi ahvol, undagi rang-baranglikni oʻtkir bahslar, tortishuvlar asosida tadqiq va talqin etilgan oʻzbek tanqidchiligidagi dastlabki asarlardan biri sanaladi.

Gʻafur Gʻulom ijodining teran tadqiqotchisi. S. Mamajonov ilmiy faoliyatining salmoqli va yetakchi qismini Gʻ. Gʻulom hayoti va ijodi haqidagi maqolalar va monografiyalar tashkil qiladi. Toʻgʻri S. Mamajonovga qadar ham Gʻ. Gʻulom ijodi haqidagi ishlar oz emasdi. Bu borada atoqli olim H. Yoqubov xizmatlarini eslashning oʻzi kifoya. Ammo Gʻafur Gʻulom ijodi, bosib oʻtgan salkam yarim asrlik yoʻlni uning qalamiga mansub barcha janrdagi asarlarni oʻrganishda S. Mamajonov yangi ruh, yangicha nazariy yondashuvlar olib kirdi. Tanqidchi ijodidagi, xususan, Gʻ. Gʻulom haqidagi izlanishlaridagi ayrim zamonasozlik ruhini ham eʼtibordan soqit qilib boʻlmaydi, albatta.

Tanqidchi Gʻ. Gʻulom ijodi haqida koʻp yillardan beri olib borgan ilmiy-tadqiqot ishlari asosida «Gʻafur Gʻulom mahorati mavzuida doktorlik dissertatsiyasini yoqladi (1968). Bu boradagi ishlarini davom ettirib, «Uslub jilolari» nomli kitobini nashr ettirdi (1972). Bu asarda Gʻ. Gʻulomning poetik merosi bir-birlariga bogʻliq uch masala atrofida tekshirildi. Ulardan biri – shoirga taʼsir koʻrsatgan omillar; ikkinchisi – shoirning oʻziga xos uslubi, mahorati; uchinchisi – Gʻ. Gʻulom ijodining boshqa qalam sohiblariga koʻrsatgan taʼsiri. Kitobda Gʻ. Gʻulomning ilmiy merosi – adabiy-tanqidiy qarashlari shoir poetik ijodiga bogʻliq holda tahlil etildi. Shu tarzda serqirra ijodkor Gʻ. Gʻulom haqida S.Mamajonovning ilmiy-tadqiqotlaridan iborat uchta monografiya vujudga keldi. Ulkan sanʼatkor Gʻafur Gʻulom ijodi haqida bitilgan bu ishlar adabiyotshunosligimizda oʻziga xos ilmiy trilogiya namunasidir.

Munaqqid va adabiy jarayon. S.Mamajonov ijodiy faoliyatida o'zbek she'riyatini atroflicha tadqiq etish markaziy o'rinlardan birini tashkil qiladi. Yuzlab taqriz va maqolalaridan tashqari «She'riyat bahsida» kitobi kabi «Ranglar va ohanglar» (1978) kitobi ham poeziya masalalari va poetik asarlar tahliliga bag'ishlandi. «Lirik olam, epik ko'lam» (1979) nomli yirik monografiyasida tadqiqotchi H. Olimjon lirik mahorati va Sharof Rashidov epik olamini keng tarzda ochib berildi. S.Mamajonov keng qamrovli munaqqiddir. U o'zbek adabiyotidagi deyarli barcha adabiy janrlar rivojlanish jarayonini kuzatib bordi va ular haqida chuqur ilmiy tahlillarga boy adabiy-tanqidiy maqolalar yozdi. Tanqidchi o'zbek she'riyati namunalarini nashr ettirishda qator ishlarni amalga oshirdi. N. Qobulov bilan hamkorlikda ijodi uzoq yillar o'rganilmay kelgan va hatto qariyb unutilayozgan Botu merosini topib, to'plab, nashr ettirdi. Bu ish adabiyot va ilm ahlini nihoyatda quvontirgani ma'lum. U 20-yillar adabiyotida muhim o'rin tutgan Botu, Elbek kabi ijodkorlarning ilk ijodiy portretlarini yaratgan edi. Ular safiga mustaqillik davrida Cho'lpon haqidagi portret ham kelib qo'shildi. S.Mamajonov adabiy tanqid janrlarining shakllanishi va rivojlanishiga ham samarali hissa qo'shdi. Uning Mirtemir bilan muloqotini yozuvchi va tanqidchi suhbatini o'zbek tanqididagi («O'zbekiston madaniyati», 1980-yil, 2-5 sentabr) bu janrning yorqin namunalaridan biridir. Kamtar va bag'rikeng, ishchan olim o'zbek adabiyotshunosligi va tanqidchiligida faol xizmat qilib kelayotgan o'nlab shogirdlarning ustozidir.

Xulosa:

Salohiddin Mamajonov o'zbek adabiy tanqidchiligi taraqqiyotida o'ziga xos maktab yaratgan, ilmiy fikrni yangi bosqichga ko'targan yirik munaqqiddir. Uning XX asr o'zbek adabiy jarayonini chuqur tahlil qilgan tadqiqotlari, Cho'lpon, G'afur G'ulom, Hamid Olimjon kabi ijodkorlar merosini ilmiy asosda o'rgangan monografiyalari adabiyotshunoslikning mustahkam ilmiy poydevorini yaratishga xizmat qildi. Mamajonov adabiy portretnavislik, poetik tahlil, bolalar adabiyoti tanqidi kabi yo'nalishlarda sarmahsul ijod qilib, adabiy jarayonni hozirjavoblik, aniqlik va faktlarga suyanib yoritdi. Uning ilmiy merosi o'zbek adabiy tanqidi rivojida muhim bosqich sifatida qadrlanadi va bugungi adabiyotshunoslik tadqiqotlari uchun ham dolzarbligini yo'qotmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nazarov B., Rasulov A. Va boshqalar. O‘zbek adabiy tanqidchiligi tarixi. – Toshkent: Fan, 2010.
2. Mamajonov S. G‘afur G‘ulom prozasi. – Toshkent: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1968.
3. Mamajonov S. Shoir va zamonaviylik. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1978.
4. Mamajonov S. Ezgu niyat yo‘lida. – Toshkent: Yosh gvardiya nashriyoti, 1978.
5. Mamajonov S. Lirik olam, epik ko‘lam. – Toshkent: Fan, 1980.
6. Karimov N. O‘zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: Universitet, 2015.
7. Yo‘ldoshev Q. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2004.